

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

3-son (4- jild)

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 3 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Ҳожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудир;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Қаюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохидат Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

Содиқова Шоҳида Мархабобевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сейтов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

Hamroyev Asliddin Umed o'g'li

“GULSHANUL MULUK” (“SHOHLAR GULSHANI”) ASARI – MANG'ITLAR HUKMRONLIGI DAVRI MUARRIXLIGI NAMUNASI 13-18

Bazarbayeva Shohsanam Muratovna

SIRDARYO VILOYATIDA VETERINARIYA SOHASIGA OID ISLOHOTLAR (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARI) 19-23

Asadova Dilnoza Innatovna

O'ZBEKISTONDA RAQS SAN'ATI SOHASIDA KADLAR TAYYORLASH MASALASI TARIXI VA BUGUNI 24-28

Ҳайитов Умед Яҳёевич

ЎЗБЕКИСТОН ССР МУВАҚҚАТ ИНҚИЛОБИЙ ҚЎМИТАСИ (МАРКАЗИЙ РЕВКОМ)НИНГ ТАШКИЛ ТОПИШИ ВА ФАОЛИЯТИ 29-34

Омонова Сарвиноз Ориф қизи

ЎЗБЕКИСТОНДА СОВЕТ ДАВРИДА ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ВА СПОРТНИНГ ҲОЛАТИ... 35-42

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

Алимханова Нигора Алимхановна

ТОВАР-МОДДИЙ ЗАХИРАЛАР АУДИТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ 43-52

Маҳмудова Дилафруз Hasanovna

KORPORATIV BOSHQARUVNING AYRIM NAZARIY JIHATLARI 53-60

Toxirov Akbarxon Toirxon o'g'li

SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY XAVFSIZLIKNING EKONOMETRIK MODELASHTIRISH 61-69

Меҳмоналиев Улугбек Эркинжон угли

СУЩНОСТЬ ОРГАНИЗАЦИИ СЛУЖБЫ ВНУТРЕННЕГО АУДИТА НА ПРЕДПРИЯТИЯХ . 70-75

Паязов Мурод Максудович

“ЎЗБЕКИСТОН ТЕМИР ЙЎЛЛАРИ” АЖДА ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШ ЖАРАЁНЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШ МЕТОДИКАСИ 76-86

Шадибекова Дилдор Абдурахмановна

ЛОГИСТИЧЕСКИЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА И ПРОБЛЕМЫ ЕГО РАЗВИТИЯ 87-92

Malikova Dilrabo, Khudoiberdieva Maftunabonu

INNOVATIVE HR MANAGEMENT: NECESSITY AND METHODS OF APPLICATION 93-99

Мамажоновна Одинахон Алишер қизи

КОРХОНАЛАР БОШҚАРУВИДА ИННОВАЦИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ЖАРАЁНЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ 100-106

Nozimov Eldor Anvarovich

ELEKTRON TIJORATNI RIVOJLANISHDA O'ZBEKISTON VA HORIIY DAVLATLARNING O'RNI 107-115

Буранова Жазира Эргаш қизи

ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ НА ИНКЛЮЗИВНЫЙ РОСТ ГОСУДАРСТВА 116-120

<i>Худойназаров Фахритдин Хаитович</i> КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ ИҚТИСОДИЙ АҲАМИЯТИ	121-127
<i>Бахтиёрлов Бобур Баходир ўғли</i> ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ РЕСУРСЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ ВА БАНК ЛИКВИДЛИЛИГИНИ БОШҚАРИШНИНГ МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ	128-136
<i>Isomitdinova Gulbaxor Kurbonaliyevna</i> O'ZBEKISTON SHAROITIDA INVESTITSIYA RISKLARINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	137-145
<i>Yuldashev Shadiyor Shuxrat o'g'li</i> OLIV TA'LIM O'QUV JARAYONLARIDA ZAMONAVIY VEB TEXNOLOGIYALARI INTEGRATSIYASI	146-150
<i>Baxtiyorov Asrorbek Azizjon o'g'li</i> TIJORAT BANKINING KREDIT SIYOSATI ASOSLARI, UNING IQTISODIY MOHIYATI	151-159
<i>Saidov Shohruh Mirzo</i> SOCIO-ECONOMIC ANALYSIS OF CONDITIONS OF DEVELOPMENT OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS	160-169
<i>Kunduzova Kumrixon Ibragimovna</i> IQTISODIY RIVOJLANISHNING HOZIRGI BOSQICHIDA XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR FAOLIYATIDAGI JORIY AKTIVLAR TUSHUNCHASI VA UNING O'RNI	170-177
<i>Inomjon Matkarimov</i> AGROKIMYO BIOKIMYO XIZMATLARI IJTIMOIV IQTISODIY SAMARADORLIGINI TA'MINLASHNING SWOT TAHLILI	178-183
09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ	
<i>G'aybullayev Otabek Muxammadiyevich</i> JAMIYATDA ESTETIK MADANIYAT RIVOJLANISHINING FALSAFIY ASOSLARI	184-189
<i>Masharipova Gularam Kamilovna</i> MAHMUD IBN MUHAMMAD IBN UMAR AL-CHAG'MINIYNING «AL-MULAXXAS FI-L-HAY'A» RISOLASINING NUSXALARI VA QOZIZODA RUMIYNING SHARHI	190-198
<i>Абдуллаханова Гулбахор Саттаровна</i> ФИЛОСОФСКИЕ ВЗГЛЯДЫ ИБН СИНО И ИХ РОЛЬ В УКРЕПЛЕНИИ ДУХОВНО- ЦЕННОСТНЫХ ОСНОВ СОВРЕМЕННОГО РАЗВИТИЯ ЦИВИЛИЗАЦИИ	199-206
<i>Urinov Xushnudjon Abdulomitovich</i> TA'LIM VA KASB-HUNAR ISLOHOTLARI GENEZISI: KASBIY FAOLIYAT VA MEHNATGA MUNOSABATNING TARIXIY SHAKLLANISHI	207-220
<i>Азизкулов Акрам Абдурахмонович</i> ШАРҚШУНОС УИЛЬЯМ ЭРСКИН ТАДҚИҚОТЛАРИДА БОБУРИЙЛАР СУЛОЛАСИ ТАРИХИНИНГ ЁРИТИЛИШИ	221-227
<i>Kenjayev Ulug'bek Muratovich</i> BEFARQLIK HAQIDAGI FALSAFIY FIKRLAR RIVOJI	228-232
<i>G'aybullayeva Laylo Safarboyevna</i> MAHALLADA YOSHLAR SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA IJTIMOIV-FALSAFIY RIVOJLANISH MASALALARI	233-238

<i>Хо'janova Tamara Jo'raevna</i> YOSHLAR MA'NAVİYATIGA TAHDID VA ULARDAN O'ZINI ONGLI HIMOYA QILISH KO'NIKMALARI	239-245
<i>Jabborova Saodat Sattorovna</i> MA'NAVİY SALOHİYATNING IJTIMOİY TARAQQIYOT MANBAI SIFATIDA XUSUSIYATLARI	246-252
<i>Xusanov G'olib Elmurodovich</i> O'ZBEK OILALARINING RIVOJLANISHIDA AXLOQIY TAFAKKUR MASALALARI	253-257
<i>Агзамходжаева Шахноза Саидматмабевна</i> МУСУЛЬМАНСКОЕ БОГОСЛОВИЕ, СВЯЩЕННЫЙ КОРАН И ТВОРЧЕСТВО НАВОИ В КОНТЕКСТЕ ФИЛОСОФСКОЙ КОМПАРАТИВИСТИКИ	258-265
<i>O'razov Bobir Baxtiyorovich</i> IJTIMOIY DAVLATNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI: VUJUDGA KELISH SHARTLARI, BELGILARI VA FUNKSIYALARI	266-270
<i>Qunishev Ulug'bek Ulashevich</i> NEMIS KLASSIK FALSAFASIDA JAMIYAT RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI AXLOQIY VA ESTETIK OMILLAR	271-275
<i>Турдибоев Бозор Худойбердиевич</i> ЦИВИЛИЗАЦИЯЛАР ТАРИХИЙ ЯХЛИТЛИК НАМОЁН БЎЛИШ ШАКЛЛАРИ СИФАТИДА	276-282
<i>Kenjayeva Dilrabo Rominovna</i> MARKAZIY OSIYO MUTAFAKKIRLARI TA'LIMOTIDA O'ZLIKNI ANGLASH TUSHUNCHASI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	283-287
<i>Azamatova Gulrukh Islom qizi</i> SOCIOCULTURAL ASPECTS IN KARL POPPER'S PHILOSOPHY IN THE CONTEXT OF MODERN EDUCATION	288-293
<i>Тошпулатова Ширин Мухиддиновна</i> ЭТИЧЕСКИЕ ОРИЕНТИРЫ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ГРАЖДАНСКОЙ СЛУЖБЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	294-302
<i>Yuldasheva Dilorom Yuldashevna</i> SCIENTIFIC ATTITUDE TO CONSCIOUSNESS AND ITS INFLUENCE ON THE FIELD OF EDUCATION	303-307
<i>Bekchanov Xudoybergan O'rinovich, Yusupova Firuza Hajiboy qizi, Yuliyeva Sohiba Shuhrat qizi</i> МАКТАВГАЧА YOSHDAGI КАТТА GURUH TARBIYALANUVCHILARDA IJTIMOİY VA KOMMUNIKATIV QOBILYATNING RIVOJLANISHI	308-314
10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ	
<i>Ткебучава Ирина Георгиевна</i> ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ ФОРМИРОВАНИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ ПРИ ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ	315-320
<i>Ikromxonova Firuza Ikromovna, Jazira Nursultanqizi</i> TIPOLOGIK TAHLIL - KOMPOZITSIYA VA JANR (TARIXIY ASARLAR MISOLIDA)	321-327

<i>Ashurova Maftuna Asqar qizi</i> LINGUACULTURAL PECULIARITIES OF THE CONCEPT “HAPPINESS” IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES	328-334
<i>Mustafayeva Saodat Burxanovna</i> SALIM ASHUR SHE’RLARIDA LINGVOMADANIY BIRLIKLAR VOSITASIDA VOQELIKNI BADIY TALQIN ETISH	335-340
<i>Abdulxayeva Nodirabegim Ixtiyorjon qizi</i> DRAMATIK ASARLARNI TARJIMA QILISHDA LEKSIK-SEMANTIK, LINGVOKULTUROLOGIK MASALALAR	341-346
<i>Xajiyeva Dilfuza Adambayevna</i> FOLKLOR VOSITALARINING ZAMONAVIY ADABIYOTDAGI O’RNI VA O’RGANILISHI	347-351
<i>Jumanova Sevara Xolmurod qizi</i> KIYIM KECHAK NOMLARI TILNING BOYISH MANBAI SIFATIDA	352-356
<i>Hojaliyev Ismail Tadjibayevich, Ismailova Sayyora Tolkinovna</i> MATN NAZARIYASINING SHAKLLANISHI	357-366
<i>Abdullaev Ulmasbek Khairullayevich</i> LITERARY WORKS AS THE MOST IMPORTANT AND WELL-ACCLAIMED COMPONENTS OF THE CULTURAL HERITAGE OF THE NATION	367-370
<i>Maxmudova Fotima Maqsud qizi</i> TYPES OF MEDIA TEXT LANGUAGE	371-375
<i>Maxmudova Zuhra Maqsud qizi</i> BADIY TARJIMANING TILSHUNOSLIKDAGI AHAMIYATI	376-380
<i>Davronova Zulfiya Boboyevna</i> UZBEK- FRENCH RELATIONS AS A BINDING PART OF INTERNATIONAL CULTURAL AND HISTORICAL EXPERIENCE	381-386
<i>Hakimova Dilrabo Yo’ldoshovna</i> TERMINOLOGIYA SOHASINING TARIXI VA DOLZARB MUAMMOLARI XUSUSIDA	387-392
<i>Мадрахимов Тулибай Абдукаримович</i> СЎЗЛАШУВ НУТҚИНИНГ ТИЛ ФУНКЦИОНАЛ ВАРИАНТЛАРИ ОРАСИДА ТУТГАН ЎРНИ	393-395
12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР	
<i>Ergashev Ikrom Abdurasulovich</i> SOLIQ INTIZOMINI BUZISH BILAN BOG’LIQ HUQUQBUZARLIKLAR UCHUN JAVOBGARLIKNING AYRIM JIHATLARINING ILMIY-NAZARIY TAHLILI	396-402
<i>Куатбек Гулнар Куатбековна</i> ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ ТРАНСПАРЕНТНОСТИ ПРЕДСТАВИТЕЛЬНЫХ ОРГАНОВ МЕСТНОЙ ВЛАСТИ	403-409
<i>Jurayev Dilmurot Mukhtarovich</i> ANALYSIS OF THE LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN ON ALTERNATIVE RESOLUTION OF DISPUTES ARISING FROM ADMINISTRATIVE AND PUBLIC LEGAL RELATIONS	410-415

<i>Mirakhmedova Fazilat Khokim kizi</i> CRIMES OF MANUFACTURING AND SELLING PHARMACEUTICALS IN A WAY TO DANGER THE LIVES AND HEALTH OF INDIVIDUALS (Evaluation of Türkiye and Uzbekistan legal system)	416-428
<i>Касимов Нодиржон Содикжонович</i> ҚАСДДАН ОДАМ ЎЛДИРИШ ЖИНОЯТЛАРИНИНГ УМУМИЙ ВИКТИМОЛОГИК ПРОФИЛАКТИКАСИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ	429-438
<i>Кутыбаева Елизавета Дуйсенбаевна, Есенбаев Джанибек Таирович</i> ЭКОЛОГИК ТУСДАГИ ФАВҚУЛОДДА ВАЗИЯТЛАРДАН МУҲОФАЗА ҚИЛИШНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	439-445
<i>Джалилов Сардор Шавкатович</i> ҲУҚУҚ МАНБАЛАРИ ВА НОГИРОНЛИГИ БЎЛГАН ШАХСЛАРНИНГ ҲУҚУҚЛАРИНИ КОДИФИКАЦИЯ ҚИЛИШ ЖАРАЁНИ	446-453
13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ	
<i>Mirzayev Qodir Toirovich</i> ZAMONAVIY XOR SAN'ATI TA'LIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	454-458
<i>Васильченко Ольга Анатольевна</i> ИСТОРИЯ И МЕТОДОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ ВОКАЛЬНО-ХОРОВОГО ИСКУССТВА В УЗБЕКИСТАНЕ	459-463
<i>Эрназаров Алишер Эргашевич, Бекмурадов Зариф Хуррамович</i> ЎҚУВ МАШҒУЛОТЛАРИНИНГ МОДУЛЛИ ВА ЛОЙИҲАЛАШТИРИЛГАН ТУРЛАРИ ҲАМДА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ	464-470
<i>Mattiyeva Feruza Begmatdulobovna</i> TARJIMONLIK MALAKASINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLINGVISTIK VA DIDAKTIK XUSUSIYATLARI	471-477
<i>Jurayev Bobomurod Tojiyevich</i> ABU ALI IBN SINO QARASHLARIDA TA'LIM-TARBIYA MASALALARI	478-482
<i>Umurova Ma'rifat Yoshiyevna</i> XALQ QO'SHIQLARI VATANPARVARLIK TUYG'USINI RIVOJLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA	483-486
<i>Raxmanova Dildora Abdulxamid qizi</i> INGLIZ TILIDA AKADEMIK YOZUV TUSHUNCHASI VA UNING TALABALAR ILMIY FAOLIYATIDAGI AHAMIYATI	487-492
<i>Rajabiy Aziz Xasanovich</i> VOKAL ARTISTI FAOLIYATIDA SAHNA MAHORATINING O'RNI	493-497
<i>Omanov Rashid Sherqobilovich</i> O'QUVCHILARDA EKOLOGIK TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH JARAYONLARINI TO'G'RI TASHKIL ETISH	498-501
<i>Салимов Ақром Хайитович</i> БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРДА ОИЛА, МАҲАЛЛА ВА МАКТАБ ҲАМКОРЛИГИНИ АМАЛГА ОШИРИШНИНГ АФЗАЛЛИКЛАРИ	502-507
<i>Mamatmurodov Sharofjon Khudoyarovich</i> TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNI.....	508-514

<i>Ли Екатерина Владимировна</i> СИНЕРГЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ИННОВАЦИЙ И ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ	515-523
<i>Ахмедова Нафиса Исаходжаевна, Азаматов Абдулло Исахўжа ўғли, Лутфуллина Румия Анваровна</i> ЁШ ТЕННИСЧИЛАРНИНГ ЖИСМОНИЙ ТАЙЁРГАРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ҲАРАКАТЛИ ҲИЙНЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ	524-533
<i>Очилова Мехрибон Суратовна, Хамроева Феруза Асроровна</i> АНАЛИЗ СОВРЕМЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПЛАТФОРМ И ИХ КЛАССИФИКАЦИЯ	534-541
<i>Амонов Mirjon Namozovich</i> ИЖТИМОИЙ ПЕДАГОГИК FAOLIYAT VA UNING ASOSIY FUNKSIYALARI	542-547
<i>Sharipov Habibullo Abduqahhorovich</i> TALABALARNING IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MUSTAQIL TA'LIMNING O'RNI VA AHAMIYATI	548-552
<i>Yaxiyaxonova Muxiba Maxmudjonovna</i> RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING IT SAVODXONLIGINI OSHIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	553-560
<i>Xakimova Gulshan Abdusalilovna</i> JISMONIY TARBIYA VOSITALARI ORQALI YOSH BOLALARNI SIFATLARINI TARBIYALASH	561-565
<i>Nazarov Rustam Irkinovich</i> TECHNOLOGY FOR DEVELOPING COMMUNICATIVE COMPETENCE OF STUDENTS IN HIGHER TECHNICAL EDUCATION FIELDS (IN THE EXAMPLE OF ENGLISH LANGUAGE)	566-570
<i>Muqimova Fotima Abduqaxor qizi, Muqimova Zuxra Abduqahor qizi</i> CHIZMACHILIK DARSLARIDA O'QUVCHILARNING GRAFIK SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHDA O'YINLI TEXNOLOGIYALADAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI	571-576
<i>Sulaymanova Dildora Nazarovna, Giyasova Shaxnoza Abdurafikovna</i> BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KREATIV TAFAKKURINI LOYIHAGA ASOSLANGAN O'QITISH VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH MODELI	577-585
<i>Usmonova Matluba Nosirovna</i> O'QUVCHILARDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNI TARBIYALASH METODIKASINING KREATIV PEDAGOGIK YONDASHUVI	586-590
<i>Ustaev Abdurazzoq Qurbonovich</i> MILLIY KURASH SPORT TURINING FUNKSIYALARI VA MAQSADGA ERISHISHDAGI VOSITALARI	591-596
<i>Shoimqulova Nigina Xolmurodovna, Yadigarova Sitara Bahromovna</i> ADDRESSING CHALLENGES IN TEACHING ENGLISH IN CENTRAL ASIAN COUNTRIES: A SCHOLARLY EXAMINATION	597-603
<i>Yeshanov Marat Urazaliyevich</i> INGLIZ TILINI O'QITISHDA BO'LAJAK CHET TILI O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA PRAGMATIKANING AHAMIYATI LANGUAGE]	604-616

<i>Tursunova Shahnoza Bekchanovna</i> JAMOATCHILIK FIKRINI SHAKLLANTIRISHDA JAMOATCHILIK BILAN ALOQALARNING O'RNATISH	617-622
<i>Atoyeva Gulshoda Rabimovna</i> OILADAGI ZO'RAVONLIKNING O'SMIR XULQIGA PSIXOLOGIK TA'SIRI	623-628
<i>Musinova Ruxshona Yunusovna, Qurbonova Aziza Davlat qizi</i> JABRLANUVCHI SINDROMI, UNING ASOSIY SABABLARI VA BELGILARI	629-635
<i>Jamolova Mokhigul Bakhtiorovna</i> METHODS OF DEVELOPING THE CRITICAL THINKING ABILITY OF PRIMARY CLASS STUDENTS THROUGH FAIRY TALES	636-641

Kenjayev Ulug'bek Muratovich
Navoiy davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi

BEFARQLIK HAQIDAGI FALSAFIY FIKRLAR RIVOJI

Annotatsiya. Ushbu maqola insoniyat tarixi davomida befarqlik tushunchasi to'g'risidagi falsafiy qarashlar evolyusiyasi va rivoji masalalariga bag'ishlanib, mutafakkirlarning befarqlik haqidagi falsafiy qarashlari o'rganilgan. Maqolada befarqlik haqidagi falsafiy g'oyalarni tahlil qilish orqali uning shaxs va butun jamiyat uchun oqibatlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy faollik, befarqlik, loqaydlik, nirvana, faylasuf, etika, renessans

Kenjayev Ulugbek Muratovich
Researcher of the Navoi State Pedagogical Institute

DEVELOPMENT OF PHILOSOPHICAL THOUGHTS ON INDIFFERENCE

Abstract. This article is devoted to the evolution and development of philosophical views on the concept of indifference throughout human history, and the philosophical views of thinkers on indifference are studied. The article analyzes the philosophical ideas about indifference and its consequences for the individual and society as a whole.

Key words: social activity, indifference, indifference, nirvana, philosopher, ethics, renaissance

Кенджаев Улугбек Муратович
Научный сотрудник Навоийского государственного педагогического института

РАЗВИТИЕ ФИЛОСОФСКИХ МЫСЛИЙ О БЕЗРАЗЛИЧНОСТИ

Аннотация. Данная статья посвящена эволюции и развитию философских взглядов на понятие безразличия на протяжении всей истории человечества, а также исследуются философские взгляды мыслителей на безразличие. В статье анализируются философские идеи о безразличии и его последствиях для личности и общества в целом.

Ключевые слова: социальная активность, безразличие, апатия, nirvana, философ, этика, ренессанс

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI1Y2024N28>

Kishilik jamiyatida ro'y berayotgan ijtimoiy o'zgarishlar odam bolasi ruhiyatiga faol ta'sir ko'rsatmoqda. Uning natijasi o'laroq turli jamiyat a'zolarining bir guruhida ijtimoiy faollik ortayotgan bo'lsa, boshqa guruhida ijtimoiy jarayonlarga befarqlik, voqealarga loqayd munosabat shakllanmoqda. Tashvishlanarli jihati shundaki, jahonning qariyb barcha mamlakatlarida, xususan O'zbekistonda ham sodir bo'layotgan voqealarga befarq bo'lgan kishilarning ko'payayotgani kuzatilmoqda. Ayrim pallalarda befarqlik turfa ijtimoiy muammolarning chuqur ildiz otishiga, keng ko'lamlil ijtimoiy islohotlarni muvaffaqiyatli amalga

oshirishga to'sqinlik qilmoqda. Shu munosabat bilan shaxs befarqligi haqidagi falsafiy fikrlar rivoji, bu boradagi falsafiy mulohazalarni umumlashtirgan holda uni bartaraf etish imkoniyatlarini topish masalasi ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb qilmoqda.

Faylasuflarning asrlar davomida kishilarni ijtimoiy shart-sharoitlarni maqbullashtirishga, ularni takomillashtirishga chorlab kelganlari sababi ham shunda. Lekin falsafa tarixida jamiyatni turfa azob-uqubatlar, tashvishlar, muammolar manbai sifatida talqin qilish namunalari ham uchraydi. Mazkur talqinlarga asoslangan falsafiy ta'limotlarda saodatga erishish uchun ijtimoiy jarayonlarga ishtirok etmaslik, ularga befarq munosabatda bo'lish targ'ib va tashviq qilinadi. Bu ta'limotlarda tashqi olamda sodir bo'layotgan voqea va jarayonlarga ishtirokdan tiyilish, ularga befarq munosabatda bo'lish oqillik belgisi sifatida ta'riflanadi.

Masalan, eramizdan avvalgi VI asrda Qadimgi Hindistonda vujudga kelgan hamda keyinchalik Osiyo bo'ylab keng tarqalgan buddizm ta'limotida insonning oliy maqsadi nirvana holatiga yetishish bilan bog'lanadi. Nirvana – turli xohish-istaklardan holi bo'lgan ruhiy holatdir. Bunday holatga tashqi olamdan uzilish, unga befarq munosabatda bo'lish, buning o'rniga meditatsiyaga berilish orqali erishish mumkin [1]. Qadimgi dunyo falsafasining yorqin vakili Platon ham ijtimoiy jarayonlarga befarqlikni oqillik timsoli sifatida qayd qiladi. Uning fikricha, faqat befarqlikka inson-ni turfa ortiqcha ehtiros va tashvishlardan sug'urta qiladi [2]. Buyuk mutafakkirning ushbu mulohazalari keyinchalik kiniklar va stoiklar maktablari tomonidan yanada rivojlantirildi. Ko'rinib turibdiki, qadimgi dunyo faylasuflari befarqlikni negativ mazmunda talqin qilmaganlar.

O'rta asrlar xristian etikasida befarqlikni neytral mazmunda ta'riflash an'anasi saqlanib qoldi. Buni, masalan, xristian asketikasi vakillari ta'limotlarida ko'rish mumkin. Ulardan biri, eramizning 346-399-yillarida yashab, ijod qilgan xristian teologi Pontiylik Yevagriy o'zining "Ma'naviy amallar haqida so'z yoxud rohib" nomli risolasida befarqlikni asl rohibning oliy ideali deb ataydi [3]. Tashqi olamning ta'siriga, foni dunyo ne'matlariga befarq bo'lgan, dunyoviy olam tashvishlaridan tiyila olgan rohibgina saodatga erishishi mumkin, deb uqdiradi u. Biroq keyinchalik xristian teologlari bunday mutlaq befarqlikka erishishning imkonsizligini ham ta'kidlaydigan bo'ldilar. Jumladan, ham katolik, ham pravoslav, ham lyuteran cherkovida so'zsiz nufuzga ega bo'lgan mashhur xristian teologi Avreliy Avgustin fikricha, befarqlik turli ehtiroslardan xoli-likni anglatadi. Lekin odam bolasi barcha ehtiros va tuyg'ularidan xalos bo'lmagani bois dunyoviy tashvishlardan ham uzila olmaydi, ularga mutlaq befarq bo'la olmaydi.

O'rta asrlar Sharq falsafasida befarqlikning birmuncha boshqacharoq talqinlari vujudga keldi. Ko'plab musulmon faylasuflarining ta'kidiga ko'ra, har qanday befarqlik ham fazilat bo'lavermaydi. To'g'ri, dunyoviy ishlarga, o'tkinchi hoyu-havaslariga, moddiy ne'matlarga befarqlik, ya'ni nafsni jilovlay bilish xislati oqillik belgisidir. Chunki, so'fiylar e'tirofiga binoan, "nafsni jilovlay olmaslik, molu-dunyo to'plashga hirs qo'yish, ya'ni boylik to'plashga uzluksiz intilish inson tanasini o'tkinchi lazzatu-farog'at bilan ardoqlaydi. Bunday lazzat va farog'at qarmog'iga ilingan inson yirtqich hayvonlardek qutura boshlaydi, g'azabi ortib boradi. Nafs va g'azabning birlashib ketishi insonda hayvoniy qiliqlarni yanada rivojlantiradi va rahmoniy fazilatlarini yemiradi. Natijada bunday kishilar ma'naviy qashshoqlasha boshlaydilar. Shuning uchun, so'fiylarning fikriga muvofiq, inson nafsiga erk bermasligi, uni o'z vaqtida jilovlay bilishi zarur. Nafsga erk bermaslik, uni jilovlay olish – ma'naviy yetuklik garovidir" [4].

Biroq, mutasavviflar fikriga ko'ra, umumijtimoiy manfaatlarga, xalq dardu-tashvishiga befarqlik fazilat sanalmaydi. Buni, masalan, buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning hammaga tanish bo'lgan:

“Odamiy ersang — demag'il odami,
oniki yo'q xalq g'amidin g'ami” [5]

kabi misralari misolida ham ko'rish mumkin. Ko'rinib turibdiki, musulmon faylasuflari mol-dunyo va o'tkinchi hoyu-havaslargagina befarq bo'lishni targ'ib qildilar, biroq o'zgalarning dardu-tashvishlariga befarqlikni qattiq qoraladilar.

Renessans davrida qaror topgan turmush tarzi inson va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar paradigmasini butkul o'zgartirdi. “Endilikda dehqon uy qurar, tegirmon yuritar, kanal qazir, yerni haydar, ekin ekar, olingan hosilni o'zi qayta ishlar, zarur mehnat qurollarini ham o'zi yasar edi. O'zining kundalik turmushi uchun zarur bo'lgan barcha bilimlarni ham bir o'zi sabr-toqat bilan o'rganardi. Xullas, uyg'onish davridagi inson o'zining bunyodkorlik, yaratuvchilik faoliyati bilan o'rta asr kishisidan tubdan farq qilar edi” [6]. Faollashgan inson jamiyat ishlariga, ijtimoiy jarayonlarga befarqlikni o'ziga ravo ko'rmay qo'ydi. Bunga hamohang tarzda Renessans davrining antroposentrik falsafasi ham ijtimoiy faollikni, mehnat faoliyatini insonni qalban poklikka undovchi manba sifatida talqin qila boshladi. Masalan, atoqli ingliz gumanisti Tomas Mor o'zining “Utopiya” nomli asarida har bir inson jamiyat ishlariga faol ishtirok etishi zarurligini, uning qadr-qimmatini xayrli mehnati, ijtimoiy faoliyati bilan belgilanishini uqdiradi [7].

Renessans falsafasi asos solgan inson va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar paradigmasi keyinchalik XVII-XVIII asrlarda Yevropada ijod qilgan ingliz faylasuflari F. Bekon, T.Gobbs, J.Lokk, fransuz ma'rifatparvarlari F. Volter, E. de Kondilyak, J.-J. Russo, P. Golbaxlar tomonidan har tomonlama rivojlantirildi. Ular insonni boshqalardan ayri holda umrguzaronlik qiladigan, ijtimoiy jarayonlarga befarq bo'lgan shaxs sifatida emas, jamiyat ishlarida faol ishtirok etadigan, uning farovonligini ta'minlaydigan zot tarzida ko'rish darkorligini tushuntirdilar [8].

Jamiyat taraqqiyoti uning a'zolari faolligiga bog'liqligi, insonning ma'naviy yetukligi esa uning umumijtimoiy manfaatlarga xizmat qilishi bilan belgilanishi, ijtimoiy jarayonlarga loqaydlik jamiyatning ham, shaxsning ham tanazzuliga sabab bo'lishi haqidagi mulohazalarni XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida faoliyat ko'rsatgan Markaziy Osiyolik ma'rifatparvarlar Ahmad Donish, Sattorxon Abdulg'afforov, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy asarlarida ham uchratish mumkin. Masalan, “Abdulla Avloniy fikriga muvofiq, jamiyatni insonparvarlashtirish fuqarolarning halol mehnati bilan bog'liq. Ishyoqmaslik, dangasalik, yalqovlik (ya'ni befarqlik va loqaydlik oqibatida kelib chiqadigan illatlar) jamiyatni xonavayron qiladi. Bunday kishilar bilan yangicha turmush qurib bo'lmaydi. Yalqov, tanbal kishilar hamisha boshqalar yordamiga muhtoj bo'lib, xorlikda yashaydilar”. Renessans davrida va Yangi Zamonda rivoj topgan bunday mulohazalar befarqlikni oqillik belgisi emas, ijtimoiy illat sifatida tavsiflash uchun nazariy asos yaratdi.

Mazkur nazariy asoslarga tayangan holda XX asr faylasuflari, sotsiologlari va psixologlarining qariyb barchasi befarqlikni oqillik va osoyishtalik belgisi emas, jiddiy ijtimoiy, siyosiy, ekzistensial va psixologik muammo sifatida tavsiflay boshladilar [9]. Masalan, avval ispan faylasufi va publitsisti X.Ortega-i-Gasset, keyinchalik amerikalik ijtimoiy psixolog G. Blumer hamda fransuz sotsiologi va faylasuf-postmodernisti J. Bodriyyar befarqlikni XX asrning ikkinchi yarmidan e'tiboran qaror topgan ommaviy jamiyatning ajralmas va muhim

atributlaridan biri deb atadilar [10]. Ularning fikriga ko'ra, XX asrda avval G'arbiy Yevropada, so'ngra jahonning boshqa mintaqalarida sanoat gurkirab rivojlana boshladi, urbanizatsiya jarayonlari avj oldi. Buning natijasida jamiyatning an'anaviy ijtimoiy tuzilishi tubdan o'zgardi. An'anaviy jamiyatda muayyan guruh yoki tabaqalar faoliyat ko'rsatgan, ularning har biri o'z turmush tarziga, o'ziga xos manfaatlarga ega bo'lgan bo'lsa, endilikda bu tafovutlar barham topdi, jamiyatda stratifikatsion rang-baranglik o'rnini umumiy xarakteristikalariga ega bo'lgan omma egallay boshladi. Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy jarayonlar mazmuni va yo'nalishini ham ana shu ommaning manfaatlari hal qiladigan bo'ldi. Shaxs esa ushbu umummanfaat oldida ojiz bo'lib qoldi. Bu ojizlik uni ijtimoiy jarayonlarga befarq qilib qo'ydi [11].

AQSH sotsiologiyasining atoqli namoyondalaridan biri Ch.R. Millz va fransuz siyosiy publitsisti P. Burdye shaxs befarqligiga ommaviy jamiyatdagi siyosiy jarayonlar sabab bo'lganiga e'tiborni qaratadilar. Ularning ta'kidlashlaricha, ommaviy jamiyat sharoitida jamiyat a'zolarining ongi faol manipulyatsiya qilina boshlandi, bu holat pirovardida kishilarning befarqligini keltirib chiqardi [12]. Biroq shaxs befarqligi nuqul siyosiy jarayonlar oqibati emas. Frankfurt maktabining yorqin vakillaridan biri G. Markuzening fikricha, u ommaviy jamiyatda qaror topgan iqtisodiy erksizlik va iste'molchilik jazavasi hosilasi hamdir [13].

Tilga olingan olimlar shaxs befarqligi sabablarini siyosiy hamda iqtisodiy omillardan izlagan bo'lsalar, fransuz siyosat arbobi A. de Tokvil uning ijtimoiy turmush bilan bog'liq jihatlariga diqqatni jamlay-di. U AQSHga safar qilib, undagi ijtimoiy hayotni bir yil davomida kuzatar ekan, zamonaviy jamiyat jadal individuallashib bormoqda, bu esa ayrim kishilarni jamiyatdan ajratib qo'yimoqda, asl befarqlikning tub ildizlari ham shu yerda, degan xulosaga keladi [14]. Neofreydizm va freydomarksizm asoschilaridan biri E.Fromm hamda Lids universiteti professori Z. Bauman esa "ijtimoiy hayot-shaxs befarqligi" aloqadorligining boshqa bir tomonini yoritadilar: ularning qayd qilishicha, ommaviy jamiyatdagi moddiy farovonlik, axborot bisyorligi "baxtli befarqlik" holatini vujudga keltirdi [15].

XXI asrga kelib, shaxs befarqligi nihoyatda sezilarli ijtimoiy muammolardan biriga aylandi. Shu boisdan uning tabiatini o'rganishga, sabab va oqibatlarini aniqlashga, bartaraf etish yo'llarini izlashga bo'lgan ilmiy intilishlar faollashdi. O'zbekistonda ham turli ommaviy axborot vositalarida, elektron nashrlarda befarqlikning jiddiy ijtimoiy muammolardan biriga aylangani xususida bot-bot gapirilmoqda va yozilmoqda. Uning tabiatini turli ilmiy muammolar kontekstida ochib berishga intilishlar ham yo'q emas. Lekin befarqlik mazmuni va shakllari, sabablari va oqibatlari, bartaraf etish yo'llari tahliliga bag'ishlangan maxsus ilmiy ishlar barmoq bilan sanagulik darajada qolmoqda [16].

Xulosa qiladigan bo'lsak, befarqlik ijtimoiy falsafa tarixi davomida mazmunan to'lishib borgan ahamiyatli tushunchalardan biri bo'lib, hayotiy maqsadlardan mosuvollik, ijtimoiy jarayonlarga loqayd munosabati, muayyan faoliyatga moyillikning zaifligi bilan bog'liq shaxs ruhiy holatini ifodalaydi. Ushbu ruhiy holat o'z hissiy, gnoseologik, aksoiologik va praktsiologik jihatlariga ega bo'lib, tuyg'u va kechinmalar atrofiyasida, ijtimoiy bilimlarga qiziqishning so'nishida, shaxs qadriyatlarining jamiyat qadriyatlaridan ayri tushishida, ijtimoiy jarayonlarga ishtirokning passivlashishida namoyon bo'ladi. Shaxs befarqligi ijtimoiy (intensiv ijtimoiy o'zgarishlar, ijtimoiy vorisiylik zanjirining buzilishi, ijtimoiy normalarning o'zgarishi, turmush tarzining individuallashishi, axborot almashuvining intensivlashuvi) va ruhiy (umidsizlik, iqtidorsizlik, erksizlik, qadriyatlarining qadrsizlanishi, yolg'izlik) omillar ta'sirida yuzaga keladi.

Jamiyatda befarq kishilarning ko'payishi ayanchli iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Филимонов А. А., Бетехтина Е. Н., Кузнецова А. В., Трапезников М.В. Специфика буддизма как философии и религии.// Colloquium-journal, 2019, №1.- 55-58-с.
2. Столяров А. Апатия.// Философская антропология, 2023, Т.9, №1.- 178-с.
3. Евагрий Понтийский. Слово о духовном делании, или Монах.// Творения аввы Евагрия: Аске-тические и богословные трактаты.- М.: Мартис, 1994.- С.94-112.
4. Чориев А. Инсон фалсафаси. Инсон тўғрисидаги фалсафий фикрлар тараққиёти. Биринчи китоб.- Т.: Ўзб.файл. миллий жам. нашр., 2007.- Б.ЖЖЖ.
5. Алишер Навоий. Ҳайратул-аброр.- Т.: Ғ.Ғулом номидаги адаб. ва санъат нашр., 1989.- Б.180.
6. Чориев А., Чориев С. Ренессанс даври Европа фалсафаси.- Т.: Тафаккур қаноти, 2015.- Б.8.
7. Мор Т. Утопия.- М.:Наука, 1978.
8. Чориев А. Инсон фалсафаси. Инсон тўғрисидаги фалсафий фикрлар тараққиёти. Биринчи китоб.- Т.: Ўзб.файл. миллий жам. нашр., 2007.- Б.ЖЖЖ.
9. Набок Ю.В. Феномен социальной апатии в современном обществе: Автореф. дисс. ... канд. филос.н.- Самара: Самарский филиал МГПУ,2005.- С.5.
10. Бодрийяр Ж. В тени молчаливого большинства, или конец социального.- Екатеринбург: Изд-во Уральского университета, 2000. Блумер, Г. Коллективное поведение. // Американская социологическая мысль.- М.: Изд-во МГУ, 1994.- С. 90-115; Ортега-и-Гассет Х. Восстание масс.// Избранные труды.- М.:Весь мир, 1997.
11. Ортега-и-Гассет Х. Восстание масс.// Избранные труды.- М.:Весь мир, 1997.
12. [Mills, C. W.](#) White Collar: The American Middle Classes (50th anniversary ed.).- New York: Oxford University Press, 2002; Бурдьё П. Начала.- М.: Socio-Logos, 1994.
13. Маркузе Г. Одномерный человек. — М.: «[Refl-book](#)», 1994.
14. *Токвиль А.* Демократия в Америке.- М.: Прогресс, 1992.
15. Фромм Э. Бегство от свободы.- М.:АСТ, 2009; Бауман З. Свобода.- М.: Нвое изд-во, 2006.
16. Бекмуродова Г.Х. Бефарқлик ва нописандлик – ижтимоий конформизм оқибати. //ҚарДУ хабар-лари.- Қарши, 2018.-№1.- Б. 78-80. Бекмуродова Г. Бефарқликнинг мазмуни илдизлари ва ижтимоий оқибат-лари.// Кадрлар тайёрлаш миллий дастури – “ўзбек модели”нинг ажралмас қисми: Ёш олимлар ва талабалар республика илмий-назарий конференцияси материаллари.- Т., 2016.- Б. 84-85.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 3 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).